O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kabachkilarni sotish va tijorat sifatini nazorat qilish

(FFV-41:2024, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #LIPWCD4H2E - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘z boshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV-41:2014 “Concerning the marketing and commercial quality control of courgettes” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #LIPWCD4H2E - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. UNECE standartlarini hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, import va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun quyidagi http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html veb-saytimizga tashrif buyuring.

Kabachkilarning ushbu qayta ko‘rib chiqilgan ECE/CTCS/WP.7/2024/5 standarti asosida ishlab chiqilgan hamda Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha Ishchi guruhning yetmish to‘qqizinchi sessiyasida ko‘rib chiqilib, qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #LIPWCD4H2E - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

KABACHKILARNI SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH

ОТНОСИТЕЛЬНО МАРКЕТИНГА И КОММЕРЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА КАБАЧКОВ

CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF COURGETTES

Amalga kiritish sanasi 1.08.2026-y.

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holatda yetkazib berishga mo‘ljallangan, Cucurbita pepo L. Zucchini Group turidan yetishtirilgan navli, urug‘lari qotishidan oldin yosh va mayin holatda yig‘ib olingan kabachkilarga nisbatan qo‘llaniladi; sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan kabachkilar bundan mustasno.

Ushbu standart guli bilan birga sotuvga chiqariladigan kabachkilarga ham tatbiq etiladi.

II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan keyingi kabachkilarga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, standart eksport qilishdan/jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagilar kuzatilishi mumkin:

• yangilik darajasining va turgorining biroz pasayishi

• “Oliy” navidan, boshqa navlarga mansub mahsulotlar uchun ularning tabiiy rivojlanishi va tez chirish xususiyati natijasida sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki sotishi taqiqlanadi. Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu muvofiqlikning ta’minlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha navlarda, har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan og‘ishlar hisobga olingan holda, kabachkilar hamda guli bilan birga taqdim etiladigan kabachkilar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun, bandi bilan birga, bunda bandining biroz shikastlanishiga yo‘l qo‘yiladi.

• sog‘lom; chirigan yoki iste’molga yaroqsiz qilib qo‘yadigan darajada sifati buzilgan mahsulotlar bundan mustasno.

• toza, har qanday ko‘zga ko‘rinadigan yot moddalardan (begona aralashmalardan) amalda xoli.

• tashqi ko‘rinishi yangi.

• zararkunandalardan xoli bo‘lishi kerak

• zararkunandalar yetkazgan va mahsulot etiga ta’sir qilgan shikastlanishlardan xoli.

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli

• har qanday begona hid va/yoki ta’mdan xoli.

Rasmiy nashr
STANDARTLAR INSTITUTI MILLIY MARKAZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bundan tashqari, mahsulot quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- qattiq bo‘lishi;
- ichki bo‘shliqlardan xoli bo‘lishi;
- yorilishlardan xoli bo‘lishi;
- yetarlicha rivojlangan, urug‘larining pishib o‘tib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lishi;

Kabachkilarning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:

- tashish va ortish-tushirish jarayonlariga bardosh bera olish;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Navlarga ajratish

Kabachkilar quyida belgilanganidek uchta toifaga tasniflanadi:

(i) “Oliy” Nav

Ushbu toifaga kiruvchi kabachkilar yuqori sifatli bo‘lishi shart. Ular navga va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarni namoyon etishi kerak.

Ular quyidagi talablarga javob berishi kerak

- yaxshi shakllangan.
- to‘g‘ri shakllangan.
- bandi tekis kesilgan va uzunligi ko‘pi bilan 3 cm bo‘lishi kerak.

Ular nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak, mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va o‘ramdagi ko‘rinishiga ta’sir etmaydigan yuzaki nuqsonlar mustasno.

(ii) Nav I

Ushbu navga kiruvchi kabachkilar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular navga va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarni namoyon etishi kerak.

Kabachkilar uzunligi ko‘pi bilan 3 cm bo‘lgan bandi bilan birga bo‘lishi kerak.

Biroq, mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanuvchanligi va o‘ramdagi ko‘rinishiga ta’sir etmasligi kerak, quyidagi yengil nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- Shakldagi yengil nuqson.
- rangdagi yengil nuqsonlar.
- rangining biroz o‘zgarganligi.
- Kasaliklar tufayli yuzaga kelgan, rivojlanib bormaydigan hamda mahsulot etiga ta’sir ko‘rsatmaydigan o‘ta arzimas nuqsonlar.

(iii) Nav II

Ushbu navga yuqori navlarga qo‘yiladigan talablarga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga muvofiq keladigan kabachkilar kiradi.

Kabachkilar o‘zining sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi ko‘rinishiga doir asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi kerak, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

---

[1]. Mayda mahsulot deganda seleksiya va/yoki maxsus yetishtirish usullari orqali olingan sabzavot navi yoki kultivari tushuniladi. Standartning barcha boshqa talablariga rioya qilinishi kerak.

[2]. Mayda tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. U tavakkalchilik asosida olingan namunalarning sifati butun turkumning sifatini aks ettiradi degan taxmin tamoyiliga asoslanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha operatsion qoidalarini jo‘natish bosqichlarida, shuningdek, ulgurji va tarqatish markazlarida hamda oziq-ovqat chakana savdo omborxonalarida operatorlar tomonidan ham qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTIDA TASDIQLANGAN - 23.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

- shaklidagi nuqsonlar
- rangidagi nuqsonlar
- quyoshdan biroz kuyish izlari
- po‘stlog‘ining shikastlanishi
- zararkunandalar tufayli yuzaga kelgan biroz nuqsonlar

(III). O‘lchamlarga qo‘yiladigan talablar

Mahsulot o‘lchami sabzavot bandining birlashgan joyidan to uchigacha o‘lchangan uzunligi bo‘yicha yoki dona (birlik) vazni bo‘yicha belgilanadi.

(a) Uzunlik bo‘yicha o‘lcham:

Minimal uzunlik 7 cm bo‘lishi kerak.

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash uchun, bitta qadoqdagi kabachkilar o‘rtasidagi o‘lcham farqi: eng kalta kabachkining uzunligi 21 cm yoki undan qisqa bo‘lganda 7 cm dan; eng kalta kabachkining uzunligi 21 cm dan uzun bo‘lganda esa 14 cm dan oshmasligi kerak. Eng kalta kabachkining uzunligi 35 cm yoki undan uzun bo‘lgan hollarda o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi.

(b) Vazn bo‘yicha o‘lcham:

Minimal vazn 50 g bo‘lishi shart.

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash uchun, bitta qadoqdagi kabachkilar o‘rtasidagi vazn farqi: eng yengil kabachkining vazni 225 g yoki undan kam bo‘lganda 50 g dan; eng yengil kabachkining vazni 225 g dan ortiq bo‘lganda esa 100 g dan oshmasligi kerak. Eng yengil kabachkining vazni 450 g yoki undan ortiq bo‘lgan hollarda o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi.

“Oliy“ va I Nav uchun o‘lchamlarning bir xilligi kerakdir.

O‘lchamlarga qo‘yiladigan talablar mayda mahsulotlariga hamda guli bilan sotiladigan kabachkilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

IV. Ruxsat etilgan og‘ishlarga oid qoidalar

Sotishning barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan nav uchun belgilangan minimal talablariga mos kelmaydigan mahsulotlar to‘plamida sifat va o‘lcham bo‘yicha muayyan og‘ishlarga ruxsat etiladi.

A Sifat bo‘yicha og‘ishlar

(i) “Oliy” Nav

Belgilangan nav talablariga javob bermaydigan, biroq I nav talablariga muvofiq keladigan kabachkilar uchun dona yoki vazn hisobida jami 5 foiz miqdorida og‘ishga ruxsat beriladi. Ushbu doirasida jami mahsulotning ko‘pi bilan 0,5 foizi II nav sifati talablariga javob beradigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(ii) Nav I

Belgilangan nav talablariga javob bermaydigan, biroq II nav talablariga muvofiq keladigan kabachkilar uchun dona yoki vazn hisobida jami 10 foiz miqdorida og‘ishga ruxsat beriladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ish doirasida II nav sifati talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlarning, shuningdek, chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlarning ulushi jami 1 foizdan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #LIPWCD4H2E - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) Nav II

Ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan kabachkilar uchun donalar soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foiz miqdorida ruxsat etilgan og‘ishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu chirigan mahsulotlarning ulushi jami 2 foizdan oshmasligi kerak.

B. O‘lcham og‘ishlari

Barcha navlar: soni yoki massasi bo‘yicha hisoblanganda, o‘lchamga qo‘yilgan talablarga muvofiq kelmaydigan kabachkalar uchun 10 % umumiy ruxsat etilgan og‘ish qo‘llaniladi.

V. Ko‘rinishga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, o‘lchamga (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa) hamda nav yoki tijorat turiga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) mansub kabachkilardan iborat bo‘lishi lozim.

Biroq, sifati jihatidan bir xil bo‘lishi hamda har bir tegishli tijorat turi va/yoki rangi bo‘yicha kelib chiqishi bir xil bo‘lishi sharti bilan, yaqqol farq qiluvchi turli tijorat turlaridagi va/yoki ranglardagi kabachkilar aralashmasi bir qadoqqa birgalikda joylashtirilishi mumkin. Bunda, bunday aralashmalar uchun o‘lcham bo‘yicha bir xillik talab etilmaydi.

Mayda kabachkilar va guli bilan bo‘lgan kabachkilar o‘lcham jihatidan yetarli darajada bir xil bo‘lishi kerak. Mayda kabachkilarni turi va kelib chiqishi turlicha bo‘lgan boshqa miniatyura mahsulotlari bilan aralashtirib joylashtirishga ruxsat beriladi.

Qadoq ichidagi mahsulotning ko‘rinib turgan qismi butun tarkibning holatini aks ettirishi kerak.

B. Qadoqlash

Kabachkilar mahsulotning tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida qo‘llaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Materiallardan, xususan, tijorat tavsiflari tushirilgan qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga ruxsat beriladi, bunda matn chop etish yoki yorliqlash toksik bo‘lmagan bo‘yoq yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lishi kerak.

Mahsulotga alohida yopishtirilgan yorliqlar shunday bo‘lishi kerakki, ular ko‘chirilganda o‘zidan ko‘zga tashlanadigan yelim izlarini qoldirmasligi va mahsulot po‘stlog‘ining shikastlanishiga olib kelmasligi kerak. Alohida meva yuzasiga lazer yordamida tushirilgan ma’lumotlar uning eti yoki po‘stlog‘ining shikastlanishiga olib kelmasligi kerak.

Qadoqlar har qanday yot aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda tashqi tomondan yaqqol ko‘rinadigan, o‘chmaydigan qilib va tushunarli yozilgan, bir tomonda guruhlangan harflar bilan ko‘rsatilgan quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va jismoniy manzili (masalan: ko‘cha/shahar/mintaqa/pochta indeksi va agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, davlat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) Kodli belgilar reyestriga[5] kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi ko‘rsatilishi kerak. Ko‘cha manzili mavjud bo‘lmagan taqdirda, jismoniy manzil ferma yoki obekt nomi, eng yaqin qishloq,

STANDARTLAR INSTITUTI #LIPWCD4HZE - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

shahar, mintaqa va pochta indeksidan iborat bo‘lishi mumkin; yoki jismoniy manzil sifatida GPS koordinatalari va abonement qutisi (P.O. Box) manzili bilan birga eng yaqin shahar, mintaqa va mamlakat[6] nomi qabul qilinadi.

B. Mahsulotning turi

• Agar qadoq ichidagi mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa “Kabachkilar”, “Guli bilan bo‘lgan kabachkilar” deb yoki shunga tenglashtirilgan nom bilan qadoqlanishi lozim.

• Tijorat turlari va/yoki ranglari bir-biridan keskin farq qiladigan kabachkilar aralashmasi bo‘lgan taqdirda — „Kabachkilar aralashmasi“ deb yoki shunga tenglashtirilgan nom bilan qadoqlanishi lozim. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, qadoq ichidagi tijorat turlari va/yoki ranglari hamda ularning har birining miqdori ko‘rsatib o‘tilishi kerak.

C. Mahsulotning kelib chiqish

Kelib chiqish mamlakati[7] va ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan tumanб hudud yoki mahalliy joy nomi.

• Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan, bir-biridan yaqqol farq qiluvchi turli tijorat turlaridagi va/yoki ranglaridagi kabachkilar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakatining nomi tegishli tijorat turi va/yoki rangining nomi yonida ko‘rsatilishi kerak.

• Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan, har xil turdagi mayda mahsulotlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakatining nomi tegishli mahsulot turining nomi yonida ko‘rsatilishi kerak.

D. Tijorat tavsiflari

• Nav
• O‘lchami quyidagicha ifodalanadi:
• minimal va maksimal uzunligi yoki
• minimal va maksimal vazni (og‘irligi)
• Kichik kabachkilar yoki miniatyura mahsulotlari uchun ularga tenglashtirilgan nomlanishi.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1988-yilda qabul qilingan
Oxirgi marta 2024-yilda qayta ko‘rib chiqilgan 2023-yilgi
Standart namunasini muvofiqlashtirilgan

---

6. Amerika Qo‘shma Shtatlarining abonement qutisi (P.O. Box) manzilidan foydalanish bo‘yicha maxsus sharti (izohi), chunki bunday manzil obyektlarni tekshirish yoki mahsulotlarni qaytarib olish holatlarida tezkor choralar ko‘rish imkonini bermasligi mumkin hamda qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy tamg‘alash talablarining tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

7. To‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #LIPWCD4H2E - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI